



Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy
malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

Investitsiyalar sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Investitsiyalar sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-011



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori va Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga (IFUT-2.1) muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish faoliyati sohasida malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malakalar ramkasi investitsiya sohasida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Investitsiya sohasida malakalar bozorini rivojlantirishning umumiy strategiyasini shakllantirish, mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozorining xususiyatlarini tavsiflash, shuningdek, investitsiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, bozor holatini monitoring va tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonlariga xalqaro talablarga mos texnik reglamentlarni joriy etish, yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash, tarmoq va hududlarning investitsiya salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoq va sohalariga investitsiyalar, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni jadallashtirish, investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash maqsadida zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holda yuqori sifat va mehnat unumdorligini ta'minlovchi kadrlar tayyorlash tizimini yaratish TMRning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ushbu Tarmoq malakalar ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:
bilim – ta'lim olish va shaxsiy tajriba orqali ma'lumotni o'zlashtirish natijasi bo'lib, mehnat sohasiga oid faktlar, tamoyillar va nazariyalar yig'indisi;

ko'nikma – kasbiy faoliyatni amalga oshirish va mehnat vazifalarini bajarish maqsadida bilimlarni qo'llash hamda kompetentlikni namoyon etish (mantiqiy, intuitiv, ijodiy va amaliy fikrlashni qo'llash orqali);

tajriba – muayyan vaqt davomida bilim va ko'nikmalarning (mahorat) o'zlashtirilishi va samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan ongli faoliyat;

tarmoq malakalar ramkasi – tarmoqda tan olinadigan malaka darajalarining tarkibiy tavsifi bo'lib, kasbiy faoliyatlarga qo'yiladigan malaka talablarini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va mas'uliyat xususiyatiga qarab darajalarga ajratuvchi tasniflagich;

investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui;

investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin;

reinvestitsiyalar – investitsiyalardan olingan, tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqlari, texnik yordam, texnik xizmatlar uchun to'lovlar va haqlarning boshqa turlari;

investor – foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o'zining mablag'larini va (yoki) qarz mablag'larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

investitsiya majburiyati – belgilangan maqsadlarga erishish uchun investor tomonidan qabul qilinadigan majburiyat;

investitsiya faoliyati – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui;

investitsiya faoliyati ishtirokchisi – investitsiyalarning amalga oshirilishini buyurtmalarni bajaruvchi sifatida yoki investorning topshirig'i asosida ta'minlaydigan investitsiya faoliyati subyekti;

to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari — chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari;

chet el investitsiyalari — chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar;

investitsiya fondlari – pullarni jamlagan holda, ularni turli aktivlarga sarmoya qilish maqsadida tashkil etilgan fondlardir;

chet ellik investorlar – chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o'rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo'lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

kompetensiyalar – muayyan malaka darajasidagi kasbiy faoliyat vazifalarini bajarishni ta'minlovchi faoliyat subyektlarining sifatleri.

TMRning maqsadi – Investitsiya sohasida e'tirof etilgan malaka darajalarining tizimli tavsifini shakllantirish, sohani rivojlantirish istiqbollari va strategiyasini inobatga olgan holda mavjud malakalarga qo'yiladigan talablarni belgilash, shuningdek kasblarni malaka darajalari bo'yicha xaritalash.

TMRning vazifasi – investitsiya sohasida qo'llaniladigan hamda istiqbolli texnologiyalarni inobatga olgan holda, soha ishchi-xodimlarining funksional xulq-atvori, ko'nikmalari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlash, shuningdek ushbu talablar asosida kasbiy standartlarni ishlab chiqishni yo'lga qo'yishdan iborat.

TMRni ishlab chiqish tamoyillari:

- soha ishchi-xodimlarining funksiyalari (funksional xulq-atvori), ko'nikmalari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlash;

- quyi malaka darajasidan yuqori malaka darajasiga o'tishda funksiyalarning uzluksizligini ta'minlash;

- funksiyalar tavsifining aniq, mantiqiy va qisqa bo'lishini ta'minlash.

TMR turli foydalanuvchilar guruhleri (*ish beruvchilar, ta'lim tashkilotlari, fuqarolar, ishchi-xodimlar*) uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

kasbiy standartlar va ta'lim standartlarini ishlab chiqishda ishchi-xodimlar hamda bitiruvchilarning malakasiga qo'yiladigan talablarni yagona yondashuv asosida tavsiflash;

ta'lim turi va ta'lim olish shaklidan qat'i nazar, shu jumladan norasmiy va informal tarzda orttirilgan ko'nikma va malakalarni inobatga olgan holda, barcha bitiruvchilar va ishchi-xodimlar malakalarini baholash uchun zarur bo'lgan uslubiy tavsiyalar hamda tartib-qoidalarni ishlab chiqish;

muayyan malaka darajasiga erishish va kasbiy o'sishni ta'minlaydigan turli ta'lim yo'nalishlarini rejalashtirish.

TMR – Milliy malaka tizimining tarkibiy elementi sifatida, mutaxassisning malakasiga qo'yiladigan talablarni, bajarilayotgan mehnat vazifalarining murakkabligi hamda investitsiya sohasining ijtimoiy-mehnat doirasida qo'llaniladigan bilim va ko'nikmalarining xususiyatlariga qarab darajalarga ajratadi. Bu tasnif mutaxassisning malakasini baholash va rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TMR investitsiya sohasidagi ishchi-xodimlarning kasbiy-ixtisoslashtirilgan malakalarining tavsifini o'z ichiga oladi. Kasblar bo'yicha guruhlangan asosiy malaka darajalari kelajakda kasbiy standartlarni ishlab chiqishda va malakalarni baholashda qo'llaniladi.

TMR kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun malaka darajalarining yagona shkalasini belgilash, malakalarning o'zaro taqqoslanishi ta'minlash, mutaxassislarning malakaga muvofiqligini baholash hamda malakani tan olish tizimi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TMR har bir malaka darajasi uchun kasbiy faoliyatning umumiy xususiyatlari tavsifidan iborat:

1) bilimlar (faoliyatning ilmiy sig'imi) – bilimlarga qo'yiladigan talablarni belgilovchi, kasbiy faoliyatning quyidagi xususiyatlariga bog'liq bo'lgan murakkab ko'rsatkich:

- qo'llaniladigan ma'lumotning hajmi va murakkabligi;
- innovatsion bilimlar;
- ularning mavhumlik darajasi (nazariy va amaliy bilim hamda ko'nikmalarning nisbati);

2) ko'nikmalar – ko'nikmalarga qo'yiladigan talablarni belgilovchi, kasbiy faoliyatning quyidagi xususiyatlariga bog'liq bo'lgan murakkab ko'rsatkichdir:

- mehnat vazifalarini yechish usullarining xilma-xilligi (variativligi), ushbu usullarni tanlash yoki ishlab chiqish zarurati;

- mehnat jarayonidagi noaniqlik darajasi va uning rivojlanishini oldindan aytib bo'lmasligi.

Ushbu ko'rsatkich murakkab hisoblanib, uning namoyon bo'lish darajasi (bir malaka darajasidan boshqasiga o'tish) tarkibiy ko'rsatkichlardan birining o'zgarishi bilan ham, ularning ikkalasining bir vaqtda o'zgarishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

3) mas'uliyat va mustaqillik — ushbu ko'rsatkich xodimning vakolatlari doirasi hamda mas'uliyatini belgilab, quyidagi uch asosiy darajada namoyon bo'ladi:

- rahbarlik ostida faoliyat yuritish;
- mustaqil faoliyat yuritish;
- boshqalarga rahbarlik qilish.

4) vakolat va mas'uliyat chegarasi – tashkilot uchun ehtimoliy xatoning qiymati, uning ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy va boshqa salbiy oqibatlari bilan bog'liq ko'rsatkichdir.

Shuningdek, mazkur ko'rsatkich rahbarning asosiy boshqaruv vazifalarini (maqsad belgilash, tashkillashtirish, nazorat qilish, ijrochilarni – xodimlar va ishchilarni – rag'batlantirish) kasbiy faoliyat jarayonida samarali amalga oshirish darajasi bilan bevosita aloqador.

Malaka darajasi muayyan ta'lim dasturini o'zlashtirish va/yoki amaliy tajribaga, shu jumladan norasmiy hamda informal tarzda orttirilgan ko'nikmalarga ega bo'lish natijasi hisoblanadi.

Malaka darajasi amaliy ish tajribasini bosqichma-bosqich orttirish, o'z ustida ishlash hamda o'qib-o'rganish jarayonida oshib borishi mumkin.

Ta'lim va o'qitishning turli shakllarini hisobga olish tarmoq malakalari tizimi doirasida amalga oshiriladi.

Xodimning bilimlari, amaliy tajribasi hamda malaka oshirish jarayonlarini hisobga olgan holda individual ta'lim yo'nalishini (trayektoriya) shakllantirish xodimga malaka darajalari bo'yicha ham vertikal, ham gorizontal yo'nalishlarda rivojlanish imkoniyatini ta'minlaydi.

TMRni ishlab chiqishga asos bo'lgan va sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 26-maydagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi 77-11-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 598-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Investitsiyalar sohasi O'zbekiston Respublikasining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, sanoat va savdo salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda tashqi va ichki bozorlarda eksport imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan strategik ahamiyatga ega faoliyat yo'nalishlarini qamrab oladi.

Mazkur soha O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan davlat investitsiya siyosati doirasida investitsiya loyihalarini shakllantirish, investorlarni jalb qilish, investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiya resurslarini samarali o'zlashtirish, shuningdek, investitsiya faoliyatining tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi.

Tarmoq malaka ramkasi investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni belgilash, shuningdek, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini mehnat bozori hamda davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan

Investitsiyalar sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turi uchun ishlab chiqilgan:

L – Moliyaviy va sug'urta faoliyati.

N — Professional, ilmiy va texnik faoliyat

O'zbekiston Respublikasida investitsiya sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.	L seksiya – Moliyaviy va sug'urta faoliyati	64 Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	64.3 Trestlar, jamg'armalar va shu kabi moliyaviy tashkilotlar faoliyati	64.31 Pul bozori va pul bozori bo'lmagan investitsiya fondlari faoliyati	64.31.0 Pul bozori va pul bozori bo'lmagan investitsiya fondlari faoliyati
2.			64.9 Sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari	64.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari	64.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari
3.		66 Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat	66.1 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yordamchi faoliyat	66.19 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat	66.19.0 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat
4.			66.3 Jamg'armalarni boshqarish	66.30 Jamg'armalarni boshqarish	66.30.0 Jamg'armalarni boshqarish
5	N seksiya – Professional, ilmiy va texnik faoliyat	73 Reklama, bozor konyunkturasini o'rganish va jamoatchilik bilan aloqalar faoliyati	73.2 Bozor konyunkturasini tadqiq qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish	73.20 Bozor konyunkturasini tadqiq qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish	73.20.0 Bozor konyunkturasini tadqiq qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	12130	Strategik rejalashtirish va faoliyatni rivojlantirish sohasidagi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari
2.	12210	Savdo va marketing bo'limlari rahbarlari
3.	24121	Moliya va investitsiya masalalari bo'yicha professional-mutaxassislar
4.	24132	Barqaror moliya va yashil investitsiyalar tahlilchilari
5.	24223	Xalqaro aloqalar bo'yicha professional-mutaxassislar
6.	24131	Moliyaviy tahlilchilar
7.	24311	Marketing va bozor tadqiqotlari bo'yicha tahlilchilar
8.	26311	Iqtisodchilar (umumiy)ga

3. Tarmoq tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2022-yil 24-dekabrda PF-269-son Farmoni bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi negizida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tashkil etilgan.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilar:

- yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash, tarmoq va hududlarning investitsiya salohiyatini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoq va sohalariga investitsiyalar, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni jadallashtirish, investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash;

- xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish, respublikaga tashqi beg'araz ko'mak (grantlar, texnik ko'mak) mablag'larini jalb qilish sohasida yagona davlat siyosatini shakllantirish va muvofiqlashtirish;

- davlat sanoat siyosatini amalga oshirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish, asosiy turdagi mahsulotlar, xomashyo va materiallarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish moddiy balanslarini shakllantirishda ishtirok etish, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish, maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarini faoliyatini rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

- sanoatning asosiy yo'nalishlari, shu jumladan kimyo, mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, to'qimachilik, ipakchilik, charm-poyabzal, zargarlik, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida, qurilish materiallari, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va realizatsiya qilish sohasida davlat sanoat siyosatini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohalarga xalqaro standartlarni joriy qilish ishlarini muvofiqlashtirish, ishlab chiqarish faoliyati turlarini litsenziyalash;

- savdo sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, bozor holatini monitoring va tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonlariga xalqaro talablarga mos texnik reglamentlarni joriy etish, tashqi savdoni tartibga solishni muvofiqlashtirish hamda elektron tijoratni rivojlantirish;

- tashqi savdo infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan eksport marshrutlarini ko'paytirish, eksportni qo'llab-quvvatlash, ichki va tashqi bozorlarda marketing tadqiqotlarini o'tkazish;

- xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va boshqa iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamda xorijiy moliya va iqtisodiy institutlardagi doimiy vakillari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalarida tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bilan shug'ullanuvchi xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish sezilarli darajada o'sib bormoqda.

To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari 2024-yilda hajmi 53,6 foizga oshgan bo'lib, ushbu ijobiy dinamika natijasida 2025-yilda mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 43,1 mlrd. dollariga yetdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 24 foizga barqaror o'sishni ta'minladi.

Xorijiy investitsiyalar asosan energetika, metallurgiya, sanoat, transport va qayta ishlash tarmoqlariga yo'naltirilgan. Qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik kabi sohalar ham investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekistonga asosiy investitsiya kirituvchi davlatlar Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya, Saudiya Arabistoni, BAA, Germaniya kabilardir.

2024-yil davomida investitsiyalar sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. 34,8 mlrd. dollar xorijiy investitsiyalar, shundan 31,8 mlrd. dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

Tarmoqlarda 17,8 mlrd. dollar va hududiy loyihalarda 17 mlrd. dollar o'zlashtirildi.

Shahar va tumanlarning 111 tasida 50 mln. dollardan, shundan 51 tasida 100 mln. dollardan ortiq xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi.

2. Qiymati 9,8 mlrd. dollarda teng 242 ta yirik va ahamiyatli loyihalar ishga tushirilib, 32,7 mingta ish o'rinlari yaratiladi.

Namangan viloyati Namangan tumanida qiymati 9,5 mln. dollarlik "Toshbuloq teks" MCHJ QK tomonidan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish orqali 250 ta ish o'rni, Navoiy viloyati Karmana tumanida qiymati 40 mln. dollarlik "Sogda kimyo zavod" MCHJ tomonidan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish orqali 387 ta ish o'rini yaratildi.

3. 730 ta (22 ta EIZ, 507 ta KSZ va 201 ta YOSTZ) sanoat zonalarida qiymati 12,4 trln. so'm bo'lgan 832 ta loyihalar (qiymati 9 trln so'm bo'lgan 60 tasi MIZlarda) ishga tushirilgan.

Sanoat zonalaridagi korxonalar tomonidan 62,5 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 1 mlrd dollar eksport qilingan.

4. Mahalliyalashtirish dasturiga muvofiq, 2270 ta loyiha doirasida 109 trln. so'mlik import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi, natijada 8,5 mlrd. dollarlik import hajmlari optimallashtirildi.

Avtomobil va ularning ehtiyot qismlari 43 trln. so'm, qurilish materiallari 8,4 trln. so'm, elektrotexnika mahsulotlari 8 trln. so'm, to'qimachilik va chirm mahsulotlari 5 trln. so'm, oziq-ovqat mahsulotlari 3,6 trln. so'm, uskuna va butlovchi qismlar 3 trln. so'mlik ishlab chiqarildi.

5. Respublikada tovar va xizmatlar eksporti 19,3 mlrd. dollarni (maxsus eksportsiz) tashkil etib eksport faoliyatiga 3 ming 143 ta yangi korxonalar jalb etilib, eksportchilar soni 7 ming taga yetdi hamda 55 ta davlatga 58 turdagi yangi mahsulotlar eksporti o'zlashtirildi.

Mahsulotlar sifat darajasining oshishi natijasida 1 mlrd. dollarlik qo'shimcha eksport hajmlari ta'minlandi.

6. So'nggi yillarda tashqi savdo sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportchi korxonalar soni 8,1 mingga yetkazildi.

7. Oxirgi yillardagi asosiy FDI loyihalaridan biri — Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasi tomonidan Qoraqalpog'istonda amalga oshirilgan 2,4 mlrd. doll., 1,5 GVt quvvatli shamol energetikasi loyihasi bo'lib, bu dunyodagi eng yirik loyihalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi jarayonlar hamda O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda o'zaro hamkorlikning ortib borayotganligi mazkur sohada faoliyat yurituvchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortishini ko'rsatmoqda.

Hukumat kafolati ostida, to'g'ridan to'g'ri va grant shaklida jalb qilinayotgan investitsiyalardan belgilangan tarmoqlar bo'yicha samarali foydalanish mexanizmini aniq biladigan mutaxassislarga ham ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Tarmoq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, hozirgi kunga qadar investitsiya sohasida yetuk, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini muntazam oshirib borish yuzasidan Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Sohada ko'plab rivojlangan davlatlardagi ta'lim muassasalarini tamomlagan, xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan malakali mutaxassislarni ishlab kelmoqda.

Jumladan, Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti, Oksford universiteti, Sterling universiteti, London politexnika va iqtisodiyot maktabi bitiruvchilari, AQSHning Kaliforniya universiteti, Chikago universiteti, Rossiyaning Sankt-Peterburg davlat universiteti, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti va boshqa bir qator oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilari.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tartib qoidalari asosida ishlatiladigan mablag'lardan unumli foydalanish uchun mutaxassislarni tayyorlash uchun yangi yo'nalishlar tashkil etilishi takliflari ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda.

Sohaga tegishli kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash, malakalar tizimini rivojlantirish, kasbiy malakani baholashni yo'lga qo'yish va sertifikatlash yuzasidan kelajakda AQSh (biznes-maktab tajribasi), Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya va Singapur kabi rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda.

Xususan, AQShda investitsiya sohasidagi mutaxassislar tayyorlash uchun bir qator ta'lim muassasalari va tashkilotlari mavjud bo'lib, bu sohadagi yuqori ma'lumotga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash uchun universitetlar va biznes maktablari (misol uchun, Harvard Business School, Wharton School va Stanford Graduate School of Business) tashkil etilgan. AQShdagi biznes maktablari jahondagi eng yorqin instituti bo'lib, investitsiya sohasidagi ishlash uchun malakali kadrlar tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1.	12130003	Investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish/kapitalni boshqarish bo'yicha (departament, boshqarma va bo'lim) rahbar
2.	12210001	Iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha (departament, boshqarma va bo'lim) rahbar
3.	12210010	Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida departament (boshqarma) direktori (boshlig'i)
4.	24121002	Investitsiyalar bo'yicha maslahatchi
5.	24121003	Moliya bo'yicha professional-mutaxassis
6.	24121001	Import-eksport operatsiyalari bo'yicha professional-mutaxassis
7.	24121006	Moliyaviy maslahatchi
8.	24131004	Moliyaviy xavflar tahlilchisi (Analitik)
9.	24223002	Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha professional-mutaxassis
10.	24223008	Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha professional- mutaxassis
11.	24311003	Marketing bo'yicha professional-mutaxassis
12.	26311004	Investitsiyalarni boshqarish bo'yicha iqtisodchi
13.	33111002	Investitsiya brokeri

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan lavozim (kasb)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1.	1	2	2025-yil, dekabr
2.	2	6	2026-yil, dekabr

6. Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
1	1	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha elementar va boshlang'ich umumiy bilimlar	Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'zganing bevosita nazorati va kuzatuvi ostida ishlash	
2	2	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha umumiy amaliy bilimlar	Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish	
3	3	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha umumiy amaliy va kasbiy bilimlar	Belgilangan vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish uchun asosiy usullar, vositalar, materiallar va ma'lumotlarni saralash va foydalanish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik; Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish	
4	4	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha keng qamrovli amaliy va nazariy bilimlar	Mehnat holati va uning oldindan aytish mumkin bo'lgan o'zgarishlarini baholashni talab qiladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasida o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va tashkil qilish	

5	5.1	Marketing nazariyasi, marketing strategiyalari va konsepsiyalari, bozorni tahlil qilish, iste'molchilar xulq-atvori va segmentatsiya tamoyillari, reklama, PR, brending va raqamli marketing asoslari, mahsulot hayotiy sikli, narx belgilash va sotuv strategiyalari, analitik vositalar (Google Analytics, CRM, SMM platformalari) bilan ishlash, marketing tadqiqotlarini o'tkazish metodologiyasini bilish, korxonaning iqtisodiy va moliyaviy asoslari, axborot texnologiyalari va media kommunikatsiyalarni qo'llash bo'yicha bilimlar.	Bozor tahlilini o'tkazish va marketing strategiyasini ishlab chiqish, mahsulot va xizmatlarni ilgari surish kampaniyalarini tashkil etish, raqamli reklama vositalari (SEO, SMM, e-mail marketing, kontekst reklama)ni qo'llash, brend identifikatsiyasi va joylashtirish strategiyasini ishlab chiqish, ma'lumotlarni tahlil qilish va marketing qarorlarini asoslash, mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatish va ularning sodiqligini oshirish, jamoada ishlash va ijodiy loyihalarni boshqarish, hisobotlar va taqdimotlar tayyorlash.	Marketing faoliyatining natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish. Mustaqil ravishda marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Qarorlar qabul qilishda iqtisodiy samaradorlikni hisobga olish. Rahbariyat va jamoa oldida natijadorlik uchun javob berish. Axloqiy va professional me'yorlarga rioya qilish. Tashabbuskorlik va innovatsion yondashuvni namoyon etish. Ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va tashkilot manfaatlarini himoya qilish.	73.20 Bozor konyunkturasini tadqiq qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish 24311003 Marketing bo'yicha professional-mutaxassis
	5.2	Moliyaviy bozorlar: fond bozori,	Mijozlarga investitsiya bo'yicha maslahat berish	Mijoz manfaatlarini himoya qilish va halollik tamoyillariga rioya etish	66.30 Jamg'armalarni boshqarish


		obligatsiyalar, aksiyalar, derivativlar Investitsiya instrumentlari va ularning tavakkalchiligi Brokerlik va dilerlik faoliyati asoslari Bank va moliya qonunchiligi (qimmatli qog'ozlar bo'yicha) Mijozlarni aniqlash va baholash (KYC, AML asoslari) Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning bozorga ta'siri Hisobotlar va moliyaviy tahlil asoslari Axborot texnologiyalari: savdo platformalari, elektron savdo tizimlari	Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bo'yicha bitimlarni amalga oshirish Bozor holatini tahlil qilish va prognozlash Tavakkalchiliklarni baholash va boshqarish Mijozlar bilan samarali muloqot va muzokara olib borish Investitsiya portfelini shakllantirish va kuzatib borish Normativ hujjatlar bilan ishlash Stressga chidamlilik va tezkor qaror qabul qilish	Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bitimlarning qonuniyligini ta'minlash Mijozlarga berilgan axborotning to'g'riligi va aniqligi Maxfiy axborotni saqlash Moliyaviy yo'qotishlar xavfini to'g'ri tushuntirish Hisobotlarni o'z vaqtida va to'g'ri yuritish Ichki nazorat va reguliyator talablariga rioya qilish Kundalik operatsiyalarni mustaqil bajaradi Mijozlar bilan bevosita ishlaydi Savdo qarorlarini bozor tahliliga asoslanib qabul qiladi Shu bilan birga: Brokerlik kompaniyasi siyosati Ichki reglamentlar Reguliyator talablariga qat'iy bo'ysunadi Murakkab va yirik bitimlar rahbariyat bilan kelishiladi	33111002 Investitsiya brokeri
6	6	Murakkab ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda jamoaviy tahlil o'tkazish, muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqish; loyihalash	Ijtimoiy vaziyatlarda va mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal etish hamda asoslangan qarorlar qabul qilish; o'z faoliyatini rejalashtirish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini namoyon etish.	Professional faoliyatning muayyan qismi yoki bo'linma darajasida faoliyat natijalari uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda xodimlar (guruh) faoliyatini rejalashtirish va boshqarish.	64.31 Pul bozori va pul bozori bo'lmagan investitsiya fondlari faoliyati 64.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari xizmatlaridan tashqari

	jarayonida asoslangan qarorlar qabul qilish; tahliliy va loyiha hujjatlarini tayyorlash; taqdimot materiallarini ishlab chiqish va taqdim etish usullarini bilish. Asosiy xavf omillarini aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish; loyihaning samaradorligini baholash, rejalashtirilgan ko'rsatkichlarni shakllantirish; moliyaviy modellashtirish asoslarini qo'llash; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va operatsion tizimlarda ishlash; professional muloqotni amalga oshirish, jamoada fikrlarni muvofiqlashtirish usullarini bilish.	Professional muloqotni yo'lga qo'yish, fikrlarni aniq va mantiqiy bayon qilish; faoliyat natijalarini rasmiylashtirish va taqdim etish; zamonaviy dasturiy va texnik vositalardan samarali foydalanish.	Bo'linma faoliyati strategiyasi doirasida boshqaruvning yangi shakllari va usullarini joriy etish. Topshirilgan bo'linma faoliyatini boshqa bo'linmalar bilan muvofiqlashtirish. Natijaga yo'naltirilgan yangi usullar va yondashuvlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish.	moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari 66.19 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat 24121002 Investitsiyalar bo'yicha maslahatchi 24121003 Moliya bo'yicha professional-mutaxassis 24121001 Import-eksport operatsiyalari bo'yicha professional-mutaxassis 24121006 Moliyaviy maslahatchi 24131004 Moliyaviy xavflar tahlilchisi (analitik) 24223002 Tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha professional-mutaxassis 24223008 Xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha professional-mutaxassis 26311004 Investitsiyalarni boshqarish bo'yicha iqtisodchi
--	---	--	---	--

7	7	Investitsiya faoliyatini strategik rejalashtirish, kapitalni boshqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish. Investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari, moliyaviy bozorlar, bank va nobank moliyaviy institutlar faoliyati, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asoslari hamda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish. Investitsiya va moliyaviy risklarni baholash, boshqarish va minimallashtirish usullari; moliyaviy modellashtirish, biznes-rejalashtirish, loyiha samaradorligini baholash (NPV, IRR, PI va boshqalar) bo'yicha bilimlarga ega bo'lish.	Investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish; kapitalni boshqarish jarayonlarini tashkil etish va optimallashtirish. Departament, boshqarma yoki bo'lim faoliyatini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va boshqarish; investitsiya loyihalarini portfelini shakllantirish va monitoring qilish. Investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy tahlilini o'tkazish, samaradorligini baholash va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Investitsiya risklarini aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish. Investorlar, moliyaviy institutlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan muzokaralar olib borish, professional muloqotni yo'lga qo'yish va manfaatlarni muvofiqlashtirish.	Investitsiyalarni jalb etish va kapitalni boshqarish sohasida departament, boshqarma yoki bo'lim faoliyati natijalari uchun to'liq shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish. Investitsiya faoliyati bo'yicha strategik qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilish, ularning amalga oshirilishini tashkil etish va natijalari uchun javobgarlikni ta'minlash. Investitsiya loyihalarini portfelini shakllantirish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash hamda resurslardan samarali foydalanilishini nazorat qilish. Bo'linma faoliyatini tashkil etish, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, vazifalarni taqsimlash va ijro intizomini ta'minlash. Investitsiya va moliyaviy risklarni boshqarish, muhim tavakkalchilik sharoitlarida muqobil yechimlarni ishlab chiqish va asoslangan qarorlar qabul qilish. Investorlar, moliyaviy institutlar va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikda tashkilot	64.31. Pul bozori va pul bozori bo'lmagan investitsiya fondlari faoliyati 64.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari 66.19 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat 12130003 Investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish/kapitalni boshqarish bo'yicha (departament, boshqarma va bo'lim) rahbar 12210001 Iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha (departament, boshqarma va bo'lim) rahbar 12210010 Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida departament
---	---	---	--	--	---

		Investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, korporativ boshqaruv tamoyillari hamda strategik menejment asoslarini bilish.	Zamonaviy axborot-analitik tizimlar, moliyaviy va statistik dasturiy vositalardan foydalangan holda boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash.	manfaatlarini himoya qilish, muzokaralarda mustaqil pozitsiyani shakllantirish. Faoliyat natijalarini baholash, hisobot berish, shuningdek qabul qilingan qarorlar va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish.	(boshqarma) direktori (boshlig'i)
8	8	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar	Yangi bilim va yechimlarga olib keladigan loyihalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat natijalarini prognoz qilish, kasbiy va ijtimoiy sohada keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish, murakkab sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot, ishlanmalar va innovatsiyalar sohasidagi yangi muammolarni aniqlash va yechimlarini topish uchun zarur bo'lgan eng ilg'or va maxsus ko'nikmalar	O'zining va ilmiy jamoaning tadqiqot natijalari, shuningdek, ularning sanoatdagi mamlakat va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy samarasi uchun mas'uliyati; Yirik institutsional tuzilmalar darajasida qarorlar qabul qilish va strategiyani belgilash, murakkab ijtimoiy, sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, yangi va murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish, jamiyatning texnik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun strategik qarorlar qabul qilish	

7. Tarmoqning funksional xaritasi



**8. Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot
(korxona)lar to'g'risida ma'lumot**

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i	Marupova Z.I.
2.	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi mutaxassisi	Murotov Q.G'.
3.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish agentligi direktori	Rasulev M.D.
4.	Hyundai Engineering Co., Ltd. kompaniyasining O'zbekistondagi vakolatxonasining bosh vakili	Adxamova Z.
5.	ITOCHU Corporation kompaniyasining O'zbekistondagi vakolatxonasining bosh vakili	Sapayeva F.F.
6.	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo davlatlardan investitsiyalar jalb qilish departamenti boshlig'i o'rinbosari — Yaqin Sharq va Afrika boshqarmasi boshlig'i	Nizomitdinov J.M.
7.	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Investitsiyalarni o'zlashtirishni ta'minlash departamenti	Bazarov T.A.
8.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti O'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor	Mehmonov S.U.
9.	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassis – Tarmoq kengashi kotibi	Kamalova B.A.
10.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Inson resurslarini boshqarish departamenti HR funksiyalarini bajarish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari	Irisov B.B.

Mazkur Tarmoq malaka ramkasi Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 26-yanvar 2026-yildagi 1-son yig'ilishida muhokama qilingan.

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining 16-yanvar 2026-yildagi TMR-014 - son xulosasi.

Investitsiyalar sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida
kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

